

## Rangtasvirda Tarixiy Janrning Ahamiyati Va O'ziga Xos O'rni

*Talaba O'razboyeva Dilora Shuhrat Qizi<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Rangtasvir-rang san'ati, rangtasvir janrlari. Ishda tasviriy san'atning tarixiy janrida yaratilgan asarlar haqida so'z boradi. Bunda tarixiy mazmunga ega bo'lган asarlarning madaniyatimizda aks etishi haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Rangtasvir, madaniy meros, tarix, ijod, tasavvur, tasvir, ranglar, ijodkor, tafakkur.

Rangtasvir tasviriy san'atning eng muhim turlaridan bo'lib, maxsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriy san'at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmunni ochib berishda rang muhim o'r'in egallaydi. Shuningdek tasviriy san'at portret, natyurmort, manzara, tarixiy, animalistik maishiy kabi janrlarga bo'linadi. Bular orasida tarixiy janrning o'ziga xosligi shundaki tarixiy janrda yaratilgan asarlarda o'tmishimiz, tariximiz va milliy urf-odatlarimiz yorqin aks ettiriladi va inson ongi va tafakkurini kengaytiradi. O'zbekistondagi miliy maktab doirasida tasviriy san'atning boshqa turlari kabi tarixiy janr ham XX asrning ikkinchi yarimida jadal rivojlandi. O'zbekistonda bu davrda yaratilgan tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarları tomoshabin ko'z oldida fikrlar, hissiyotlar va shakl shamoyil usullarining ko'p qirrali ranginligini namoyon qiladi. Tasviriy san'atning tarixiy janridagi asarlardan iborat madaniyat obyektlarini idrok etilishi tomoshabinning nigoh tashlashi bilan chegaralanmagan holda balki qiyosiy anglashga asoslanadi. Shu yo'l bilan madaniyatning turli ko'rinishlari jamlanganda ularni ifodalashning oliy shakli hisoblangan san'at asari ajralib turadi. Bunday holatdan tasviriy san'atning tarixiy janridagi asarlar ham istisno emas.

XX asrda tasviriy san'at asarları yaratishning yangi tamoyillari shakllandi. Ma'lum tarixiy davrlarga xos bo'lган tarixiy janrdagi vogelikka aylangan ba'zi tasviriy san'at ustalaridan Ne'mat Qo'ziboyevning Abu ali ibn Sino va Furqat portretlari, 1983-yili Bahodir Jalolovning "Raqsning tug'ilishi" J.Umarbekovning "Ongli inson", A.Abdullayev "Alisher Navoiy portreti", P.Benkovning "Shohi Zindadagi rassom", " Samarqandning eski ko'chasi" kartinalari, M.Nabiyevning "Amir Temur portreti" ni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ular yaratgan asarlar O'zbekiston va xorijdagi muzeylar, galereyalar, davlat muassalarida namoyish etilmoqda.

Tarixiy janrdagi asarlarni yaratishda tarixni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Turli davrlarga xos bo'lган ma'lumotlar orqali san'at va madaniyat haqida turli ma'lumotlarga ega bo'lamic. Ayniqsa temuriylar davrida me'morlik san'ati nihoyatda rivojlandi. Bu davrda me'morlikda birinchi bor vujudga kelgan yirik va murakkab me'morlik majmualari muhim o'rinni egallaydi. Tasviriy san'at ustalari tarixiy madaniy obyektlarni mohirona tasvirlashgan. Me'morchilik yodgorliklari rangli koshinlar bilan boyishi katta badiiy-estetik ahamiyat kasb etdi. Albatta, rangli bezak O'rta Osiyo me'morligida avval ham bo'lgan, lekin XW asrga kelib bino ichki va, ayniqsa, tashqi pardoziда bu uslub alohida o'rinni egallaydi. Temur nafaqat o'z ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandda, balki o'z tasarrufidagi yerlarda ham hashamatli binolar qurdirdi. Samarqandagi eng mashhur obidalardan biri Go'ri Amir maqbarasıdır.

Go'ri Amir O'rta Osiyo me'mor-chiligining noyob asari sifatida e'tirof etiladi. Maqbara qurilishi Amir Temur buyru'giga asosan 1403-yilda boshlanib, Mirzo Ulug'bek davrida tugallangan. Maqbara, Samarqandining janubiy-sharqi qismida, Temurning nabirasi Muhammad Sulton tomonidan, XIV asrning oxirida bino qildirgan majmua qoshida tiklangan. Burchaklarida minolari bo'lган chors hovli kompozitsiyasi markazidir. Shimol tomonidan-asosiy eshik; g'arbda-buzilid ketgan xonaqoh qoldiqlari; sharqda-Samarqanddagi eng qadimgi madrasalardan birining poydevori va tarxi buzilmaydigan qilib mustahkamlangan. Keyinroq, Ulug'bek davrida maqbaraning sharqiy tomoniga peshtoq gumbazli yo'lak qurilgan, ansamblga asosan shu yerdagi eshikdan kiriladi.

<sup>1</sup> Sharof Rashidov Nomidagi Samarqand Davlat Universiteti



Mening bu ijodiy asarimda ham Go'ri Amir maqbarasini tasvirlashga harakat qilganman. Bu asarda XV asr boshlaridagi maqbaraning qadimiy ko'rishini aks ettirganman. Hozirda maqbara rekonstruksiya holatida. Obida pishiq g'ishtlardan bunyod etilib, quyosh nurlari bilan yorqin ifodalanganligi sababli, issiq ranglar gammasidan foydalanganman. O'sha zammonni aks ettirish uchun qo'shimcha ravishda tuya mingan savdogarlar tasviri tushirilgan va ochiq havo ekanligini ko'rishimiz mumkin. Kompozitsiya markazini obidaning gumbaz qismi egallagan bo'lib, ulug'vorlik va tan tanavorlikni o'zida mujassam etgan. Gumbazni rangdor, silliq g'ishtlar bilan qurilganligi sababli, quyoshdan tushayotgan nur, gumbaz markaziga urilib blik hodisasini keltirib chiqarmoqda. Asarda kunning asr payti tasvirlanib, binodan tushayotgan soya asarga tabiiylikni beryapti. Qat'iy, ulug'vor shakldagi gumbaz shahar uzra savlat to'kib turibdi. Daxmaning 70-yillar boshida bu bezaklar ta'mir etilgan ichki tomoni xususan serxasham va shukuhli; ganch suvoq ustiga aniq geometric shakllar, naqsh va uslublashtirilgan tojbarglar, gullar solib bezatilgan, zamini qizil rangda tovlanadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlab o'tamanki, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida xalqimizning madaniy va ma'naviy qadriyatlariga munosabat o'zgardi va fenomen darajasiga yetgan O'zbekiston madaniyatidagi tarixiy janr tasviriy san'at asarlari ham e'tibor markazida bo'lib qoldi. Tasviriy san'atning tarixiy janridagi yangilanishlar va o'zgarishlar tushunchasi odamlarning dunyoga bo'lган qarashini kengaytiradi. O'zbek tasviriy san'atida, ayniqsa uning tarixiy janrida dunyonı o'zgarishi haqidagi g'oyalar ochib beriladi va yorqin tasvirlanadi. Tasviriy san'at asarlari ma'naviy-ma'rifiy qadriyat hisoblanib, milliy ongning o'sishiga haqqoniy ta'sir ko'rsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ulug'bek Mamatov. "O'zbekiston madaniyatida tarixiy janridagi tasviriy san'at asarlari"
2. A.Amanullayev. "Rangtasvir" 2005 yil
3. S. Abdurasulov, N.Tolipov, N.Oripova. "Rangtasvir" 2006 yil
4. Konstantin Stepanovich Kryukov. "Samarqand" 1980 yil